

## OGAHIYNING O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI

*Matyakubova Surayyo Abdullayevna*

*URDU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda badiiy matnning tahliliga o'zgacha yondashish talab qilinadi. Ushbu maqolada Ogahiy ijodi va o'zbek mumtoz adabiyotidagi mavqeyi bevosita o'zining asarlarini tahlil qilish orqali yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ogahiy hayoti va ijodi manbalari, o'rganilish tarixi, shoirning adabiy-ilmiy merosi, "Ta'viz ul-oshiqin" devoni, janrlar tarkibi, mavzular doirasi va g'oyaviy ko'lami, shoirning timsol qo'llash mahorati, she'riyatida Alisher Navoiy ijodiga munosabat, devondagi asarlar badiiyati, Ogahiy - tarixnavis, tarixiy asarlarining qomusiy tabiati haqida, ularning ilmiy va badiiy qimmatini, Xorazm tarjima maktabida Ogahiyning o'rni, tarjimalarining ahamiyati.

Yorqin iste'dodlarga boy mumtoz adabiyotimiz, madaniyatimiz tarixida Ogahiyning o'rni o'ta salmoqlidir. U talantli lirik shoir, iste'dodli tarjimon, zabardast tarixchi sifatida juda boy meros qoldirgan. Shu sababli Ogahiy zamondoshlaridan Muhammad Rahim Feruz, Ahmad Taroziy, Ahmad Tabibiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Komil Xorazmiy kabi davrining taniqli, ilm madaniyat arboblari, shoirlari uning ta'rifida ajoyib fikrlar bayon etganlar.

Ogahiy zamonidan boshlab uning ko'p yillik ijodiga tarjima va tarixiy asarlariga qiziqish so'nmay davom etib keladi. Mashhur sharqshunos olimlardan Bartold, Samaylovich, Yakubovskiy, Yahyo G'ulomov, Q.Munirov kabilarning adabiyot tarixiga; G'aybulla us-Salom, J.Sharipov, N. Kamolovning tarjimashunoslikka oid asarlarida Ogahiy ilmiy adabiy faoliyatining muhim jihatlariga fikrlar bayon qilingan. 1960- yili uning "Ta'viz-ul oshiqin" devoni nashr etildi. 1971-1980 - yillar ichida "Ta'viz-ul oshiqin" devoni, tarjima va tarixiy asarlaridan namunalarni o'z ichiga olgan 6 jildlik asarlari chop etildi. 1989- yili bu ulug' shoir va madaniyat arbobining 180 yilligi, 1999- yili esa 190 yilligi keng nishonlandi.

Ogahiy 1809- yil 17- dekabrda Xiva atrofidagi Qiyot qishlogida (hozirgi Ogahiy nomli jamoa xo'jaligi) Erniyozbek mirob oilasida dunyoga kelgan. Muhammad Rizoning mashhur shoir va olim, tarjimon bo'lib yetishishida togasi Munis Xorazmiyning xizmatlari katta bo'lgandir. Bolalik va o'smirlik yillarini Qiyotda o'tkazdi, boshlang'ich ma'lumotni o'sha yerda oldi. Keyin Xiva madrasalarida tahsil ko'rdi. Madrasa tahsili davrida otasi olamdan o'tdi. Shu orada, aniqrog'i, 1829 - yili Ogahiy amakisi, ustoz Shermuhammad Munisdan ham ajraldi. Olloqulixon Ogahiyning Munis o'rniga mirob etib tayinlandi. Shu davrdan e'tiboran,

Ogahiy bu davrdagi hasbi hol she'rlarining ahvoli haqida «Ta'viz ul-oshiqin» devoni debochasida shunday hikoya qiladi: «Ammo ro'zg'or tashvishotidin va taalluq tasdiotidin andak forug' bo'lg'on va fursat topg'on vaqtlarda kamoli shavq va ixlos bila goho ulamoyi izom xizmatlariga rag'bat bila borib, nuktaronlig'lar sharbati lazzatidin shirinkom bo'lib, bahrayi tamom olur erdim va goho shuaroyi donshpiltizom suhbatlarin sur'at bila oxtorib, kitobxonlig'lari vaqtidan hazzi vofir olib, ru-hafzo iboratlariga quloq solur erdim va goho haqqoniy obidalar savmaasi ziyoratig'a ixlos bila yuz urub, muborak suhbatlari jannatining gullaridin fayzu futuh royihasi topar erdim va goho riyoyi zohidlar xonaqohi bozorig'a karhan o'zimni etkurub, majlislari qudratning g'uboridin ixlos va e'tiqodim/ Alarning ko'prog'i xaloyiqning tillari azkorida mazkur, ko'ngullari avroqida mastur bo'lub, olam atrofi va falak aqtorida quyosh yanglig' shuhrat tutub, akobir majolisida rutb ul-lison va asog'ir mahofilida juzdonda pinhon qolib, ba'zining musavvadasi beparvolig'im sababidin har tarafg'a sochilib, nobud va parishon bo'lur erdi».

Badiiyat namunalarining tarqoq holda qolishi bu paytda faqat Ogahiyga xos emas, balki ijod ahli uchun umumiy hol edi. Adabiy merosga nizom va intizom beruvchi rahnamo va nazarkarda bir kuchga ehtiyoj sezilardi. Ayni shu zamonda mamlakat taxtiga ma'rifatparvar hukmdor kelib, adabiy jarayonga yangi to'lqin olib kirib, jonlantirib yubordi. Hokimiyat va madaniyatdagi bu yangilanishni Ogahiy mamnuniyat bilan e'tirof etadi: «Tokim, ayyom tasorifi va a'vom tabodili bila bir necha zamon o'tti, jahon xaloyiqiga musarrat va bohjat hangomi etti. Maliki mannon inoyati bila Xorazm diyorining firdavsazm mamlakati hazrati xilofatpanohi saltanatdastgohi, sipehrrif'at, xurshedmartabat, iskandarnishon, sulaymon-makon... boisus saxovat val adolat, vorisul mamlakat va saltanati abul muzaffar va mansur Sayyid Muhammad Bahodirxon qo'lig'a kirdi va ul mamlakatga podshohona siyosat va mulukona adolat bilan o'zga yanglig' ziynat va nizom berdi va har toifani o'z holig'a ko'ra marhamat va navozishlar bilan xushdil va bahramand va har jamoani o'z martabasiga yarasha makramat va baxshshplar bila xushhol va xursand qildi» «... bir kun (Feruz) faqirg'a inoyat nazari bila boqib, dilnavozlik yuzidin xitob qilib de-dikim: «Borcha musavvadalardagi va bayozlardaga va o'zga erlardagi parishon bo'lgan she'rlaringni jam' etib, devon suratida tartib bergil va onga debocha ham yosob so'ngra aytilgan ash'oringni dog'i hamul devonda o'z mahalida rakam silkiga gavhar yanglig' tergil».

Ogahiy, dilso'z nazmingni eshitsa ahli vshq  
Bo'ynig'a ta'vizdek aylarlar ash'oringni band.

Xususan, «Ta'viz ul-oshiqin» debochasida Ogahiy o'z nazmi mohiyatini juda aniq va ravshan izohlab ketgan:

Toza she'r tafakkuri bodasin ichib, goho o`zinga keldim, goho o`zimdin ketdim. Chun borchasi dardi ishq o`tining harorati bila og`ushta va shavqu muhabbat asarining siroyati bila sirishta va oshiqqlar g`amining taskiniga sabab va dardmandlar alamshgang tahfifiga mujib erdi.

Ogahiy yirik zullisonayn shoir hamdir. «Ta'viz ul-oshiqin» devonida 1300 misradan ortiq asar «Ash'ori forsiy» nomi bilan alohida o`rin tutadi.

Ogahiy asarlarida inson bekami-ko'st kamolga yetishishi uchun yoshlikdan ilm va kasb-hunar egallashi shart ekanligini takidlaydi, uningcha ilm marifat insonning ma'naviy kamolotida va jamiyatning taraqqiyotida kuchli vositadir.

Ogahiydan boy ijod meros qolgan. U madrasada o`qib yurgan paytlardanoq "Bayozi mutafarriqai forsiy" nomli bayoz tuzdi. Bu bayozda Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Hofiz Sheroziy, Bedil, Fuzuliy gazallarini kiritish bilan bir qatorda ularga ergashib yozgan o`zining o'n besh gazali va ikki muhammasini qo'shadi.

Ogahiy ustoz Munis boshlab qo`ygan, ammo tamomlay olmagan tariziy "Firdas ul - iqbol" asarinbi yozib tugatdi. Ogahiy dunyoga, insonga tunganmas, hayotga cheksiz muhabbat mehr bilan qaraydi. Shoir inson hayot go`zalliklarini muhabbat shavq-zavqini tolib toshib toshib tarannum etadi. Mutafakkur o`z asarlariga ijtimoiy fikrlarni mahorat bilan singdirib yuboradi. Ogahiyning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sugorilgan go`yalari Xon va shoir Feruzning siyosiy ma`rifiy tarbiyasiga ta`sir qiladi. U tarixchi olim sifatida Xiva xonligiga, yirik tarixiy shaxslarga bagishlab qasidalar yozgan.

Ogahiyning o`z zamonasining mumtoz lirik shoiri sifatidagi xilma-xil mavzu va janrlardagi she`rlari 1852 yili tartib berilgan "Ta'viz-ul oshiqin" devonida jamlangan asar biz Ogahiyning 1874 yilgacha hayot bo`lganligi hamda saroydagi miroblik xizmatidan forig' bo`lib, asosan ijodiy ish bilan shug`ullanganligini e'tiborga olsak, shoir yigirma yillar davomida yana qanchadanqancha lirik she`rlar yozganligi, binobarin Navoiydan keyingi o`zbek adabiyotida eng sarmahsul lirik shoir sifatida namoyon bo`lganiga ishonch hosil qila olamiz. "Ta'viz-ul oshiqin" qo`lyozmalari 1882-1905- yillari litografik usulda bosmadan chiqarilgan. Bizning davrimizda esa, biroz qisqartirilgan holda 1960- yili nashr etildi. Devondagi she`rlar Ogahiy lirikasining hammasi bo`lmasa ham hajman salmoqlidir.

"Ta'viz-ul oshiqin" da 500 ga yaqin g`azal, ruboiylar, 89 muxammas, mustazodlar, 19 qasida, 5 musaddas, 4 musamman, 4 masnaviy, 8 qit'a, 10 tuyuq, 4 chiston, 20 tarix she'r, 4 tajriband kabi 13 xil lirik janrdagi asarlar jamlangan.

Devon adog`ida "Ash'ori forsiy" nomi bilan keltirilgan 1300 misra she'r ham bor. Ogahiy devon tartib berish va uni nomlashda ham Shermuhammad Munis yo`lidan boradi. Munis va Ogahiy oralaridagi ustod-u shogirdlik ko`p qirralidir. Ularning

munosabatlari tog'a-ziyanlikdan, oilaviy yaqinlikdan ijodiy yaqinlik tomon o'sib borgan.

Devondagi she'rlarning umumiy soni, adadi 600 ga yaqin, shulardan 500 ga yaqini g'azallardir. Ko'rinadiki Ogahiy Alisher va Munisdan so'ng eng ko'p g'azal yozgan va bu janr taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan shoirdir.

Ogahiy g'azaliyoti o'zbek g'azaliyotining Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Huvaydo, Munis g'azallaridagi eng yaxshi an'analarining g'azal va ijodiy davomidir. Klassik poeziyadagi ko'pgina an'anaviy xususiyatlar Ogahiy ijodiga shu ikki buyuk shoir tajribasi orqali o'tgan, desak xato bo'ladi, albatta.

Ogahiy she'riyati, jumladan, g'azaliyoti dunyoviy va ilohiy ishqni, inson komilligini, axloqiy go'zallikni birlikda ifodalovchi asarlardir. U har bir asarini ma'rifat nurlari bilan go'allashtirib, ularni tarbiyaviy ahamiyatini oshirishga harakat qiladi:

Ushshoq ko'nglun olg'ali xulqu malohati shart emas,  
Yo'q sarvaso qomatu ruxsorai gulfomi shart.

Uning tasviridagi sevuvchilar har qanday g'araz va manfaatdorlikdan uzoq, yuragi toza, dili pok, xushxulq, zukko shaxslardir. Masalan; u malaksimo yor obrazini chizar edi, uni Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida Mehinbonu saroyidagi ilm-ma'rifatga intiluvchi, turli sohalarda o'z iste'dodini namoyon eta olgan qizlarga xos fazilatlar egasi tarzida ko'rishni orzu qiladi.

Ogahiy- hayotsevar shoir. U insonlarni umrini g'animat bilib, ko'ngilni xush tutib, Olloh nasib etgan xursandchilikdan bahramand bo'lishga chaqiradi. Bu g'azal insonlar mashvarati, o'yin-kulgusi, sharbat kayfi, mutribu xonandalarning yoqimli navolari, ko'ngul istaklari misoli ifodalaydi.

Ogahiy g'azallari badiiylik nuqtayi nazaridan ham haqiqiy san'at mevalaridir. Ularda alvon-alvon lafziy va ma'naviy san'atlar, qofiya, radif hada aruz vaznlari jilvasini ko'ramiz. Quyidagi baytlarda misralar ichida ham qofiyalar ham ishlatilib, she'rda ritmik ohanglarni yuzaga keltirishga imkon yaratuvchi musadj'a san'ati ishlatilgan:

Mehri vafo razmin tuzib, jabru jafo tarvin buzib,  
Shirin tabassu ko'rguzub, la'li duraxshonim kelur.

Badiiy vositalari ichida istihroj san'ati ham o'zi xos o'rin egallaydi. Istixrojning lug'aviy ma'nosi – "qazib chiqarmoq" degani. Istilohiy ma'noda esa, badiiy matnda keltirilgan harflardan so'z qazib chiqarmoqni anglatadi.

Ogahiy mustazodi sof oshiqona ruhdagi asar bo'lib, uing boshdan-oyoq mazmuni oshiqning ma'shuqani vasf etishi, unga dil izhorini ifodalapshga bag'ishlangan. U so'fiyona asardir, chunki unda ilohiy ma'shuqa — Olloh jamoli, visoli madh etiladi. Uushbu mustazod ilohiy ishq tuyg'ularini tarannum etuvch» go'zal badiiy obidadir.

Ogahiyning mashhur “Ustina” radifli g’azalining matla’ bayti ham shu san’atning oliy namunasi. Ogahiy g’azallarida, umuman, lirik she’rlarida aqlga sig’maydigan mubolag’alar, uning tableh, ig’roq, g’uluvv kabi aqlan ishonish mumkin bo’lgan, o’ta kuchaytirilgan, ba’zan aql bovar qilmaydigan turlari uchraydi.

Ogahiy arabcha “Chiroyli dalillash” ma’nosini anglatuvchi, badiiy asarlarda tasvirlanayotgan voqea hodisaning shoirona sababini ham ko’rsatib ifodalash san’ati hisoblangan “Husni ta’lil” usuliga ham tez-tez Ogahiy va umuman Munidan e’tiboran Xorazmlik shoirlarning ko’pida she’rda muayyan so’zni takror qo’llash san’ati hisoblangan takrirning ham xilma-xil ko’rinishlarini uchratamiz. Ogahiyning bir g’azalidagi matla’dan maqta’gacha ko’llangan takril san’ati g’azal baytlarining ikkinchi misralarida ifodalalayotgan ma’nolarni kuchaytirib, birinchi misralardagi oshiq dardlarini yorqinroq ochishga xizmat qiladi. Takrir she’r baytlarida (boshi, o’rtasi yoki oxirida) juft-juft so’zlar qo’llash san’ati sanalgan mukarrar san’atdan farq qiladi.

Professor A.Hojiahmedovning she’riy san’atlar va mumtoz qofiya risolasida qofiya san’atlari xususida juda muhim nazariy ma’lumotlar, tahliliy sharxlar keltirilib, shu san’atda Ogahiyning shoir o’ylagan poetik niyatni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Ogahiy she’riyatida o’z mavzularining zamonaviyligi, dolzarbligi, ma’no va mazmunining chuqurligi bilan birga, badiiy - estetik g’azallagi jihatidan ham ibratli maktabdir.

Ogahiy she’rlarida vazn, qofiya noqisliklari umuman uchramaydi:

Toki ul qotilg’adur sanidon ko’ngul, xunxor ko’z,

Jabru zulmidun manga vayron ko’ngul, xunbor ko’z.

bayti bilan boshlanuvchi oshiqona g’azalida shoir g’azalning oxirigacha har bir baytda ikki so’zni qofiyadosh qilib keltirish (yuqoridagi baytda “sandon, xunxor – vayron, xunbor”)ni mohirlik bilan ishlatgan. U tasavvufiy ruhda yaratgan mustazodlarida ham original qofiyalar topib ishlatishga muvoffaq bo’ladi.

XX asrning 2-yarmidan yuksak bosqichga ko’tarilgan, ayrimlariga Feruz va Komil Xorazmiy tomonidan kuylar bastalanib, notalarda aks ettirilgan Xorazm shoshmaqom va suvora turkumidagi mumtoz qo’shiqlarni asosiy qismini Ogahiy g’azallari, muxammaslari tashkil etdi.

Jumladan, Ogahiyning “Ustina” radifli mashhur ishqiy orifona g’azali “Peshravi Feruz” deb ataladi. Uni Komil Xorazmiy notaga olgan. 6 jilddan iborat “Xorazm maqomlari” kitobidagi shunday qo’shiqlarning ko’plari Ogahiy she’riyatiga bastalangan qo’shiqlardir. Ularning Xorazmning mashhur hofizlari Madraim Sheroziy, Komiljon Otoniyozov kabilar ijro etganlar.

Ogahiy o`zbek shoirlari ichida eng ko`p musammatlar yaratgan shoirlardan biridir. “Ta`viz ul oshiqin” devonida 2 ta murabba’,89 muxammas, 5 musaddas, 4 musamman keltirilgan. Ko`rinadiki, Ogahiy muxammaslar yaratishga alohida e`tibor bergan. U hatto muxammaslarni devoniga alifbo tartibida joylashtirishni lozim ko`rgan. Ularni bir joyga jamlagudek bo`lsa, muxammaslardan iborat bir she`riy majmua, muxammas she`rlar devoni paydo bo`lishi mumkin. Ummat To`ychiev “muxammas janrining asoschisi Ogahiy” deganlarida, garchand, bu fikr bo`lmasada, Ogahiyning bu janriga ayricha qiziqish va e`bitor bilan qaraganlarini nazarda tutgan edik. Ayrim tasavvuf ruhidagi namunalar bu anrga nashrga kiritilmay qolgan bo`lishi mumkin. Ogahiy Mavloni Fuzuliyning 5 ta, Munisning 4 ta, zamondoshlaridan Roji Xorazmiyning 3 ta, shoh va shoir Feruzning 5 ta Dilovorning 1 ta, Amiriy (Umarxonning) 1 ta, G`oziyning 1 ta g`azaligi tazmin muxammaslar bog`lagan.

Ogahiyning qolgan 40 dan ortiq muxammasi o`zining mustaqil va bir nechasi o`z g`azallariga o`zi yozgan muxammaslardir. Aytish mumkinki, Ogahiy muxammas she`rlar ijod qilishda birinchi navbatda Navoiy tajribalariga, qo`llagan usullariga murojat etdi. U Navoiydan so`ng shu janrni eng yuksak bosqichga ko`tara olgan shoir bo`ldi. Buyuk Alisher Navoiy, soni unchalik ko`p bo`lmasa-da, bu janrning etuk namunalarini yaratdi. Ayniqsa, boshqa shoirlar, shu jumladan o`z g`azallariga tazmin muxammaslar yozish an`anasiga ham asos qo`ydi. Ogahiy shu nuqtada Navoiy dahosidan nihoyatda kuchli ta`sirlandi.

Ogahiyning Navoiy g`azaliga 3 misradan qo`shib borgan satrlarida ham g`azaldagi asosiy g`oya-erkinlik, faqirlik-boylik, eski bo`ryo - taxti Kayon, atta - aziz ta`om kabi qarama – qarshi narsalar va sifatlar o`xshatish bo`lib kelgan. Navoiy va Ogahiy g`azallaridagi fikrlar bir-biriga shuqadar bog`langanki, ularning ikki muallif – Ogahiy va Navoiy misralari ekanligi mutlaqo sezilmaydi. Agar muxammas oxiridagi taxalluslarga qarab, uning Ogahiy va Navoiy misralari ekanligi bilinib turmasa, ularni bir shoir qalamidan chiqqan deb o`ylash mumkin.

Ogahiyning “Arzimas” radifli g`azal va muxammasida tamagirlik qoralanadi. “mo dune orttiramam deb o`zingn harob etma, qanoat rasmini tut, boriga shukur qil, halol yasha” degan g`oya ilgari suriladi. Ogahiy o`zining ishqiy, ilohiy, ijtimoiy-ta`limiy fikrlariga to`la quyidagi matlali g`azallarini ham, yuqoridagi poetik maqsadlarni ko`z tutgan holda, beshlamalarga aylantirgan.

Bu an`ana rivojida yangi sahifa ochgan Ogahiy yo`lini uning Farg`onalik izdoshi Mavlano Muqimiy davom ettirdi. U g`am o`zining bir qancha oshig`ona g`azallaridan tashqari xatto hajviy g`azallariga ham yana o`zi tazmin, muxammas bog`ladiki, bu hol o`rta asrlar fors adabiyotida avval tasmit nomi bilan halqasimon she`r yaratish usuli sifatida paydo bo`lib, so`ng musammad she`r shakllari sifatida

rivojlana boshlagan, dastlab turkiy namunalari asosan Navoiy, Nizomiy va boshqalar orqali XVII asrlarda Turdi Farogʻi, Mashrab, Saydo Nasafiy, Mirzo Bedil yodida ijtimoiy xatto isyonkor oganglarni ifodalovchi janglardan biriga aylanganini koʻrsatadi. Bunda, shbhasiz Ogahiy bu jang takomili va rivojidadagi mavqei nihoyatda katta boʻldi.

Ogahiyning ijodi boʻyicha ilmiy ish olib borib disertatsiya yoqlangan Madina Matyoqubova Ogahiy ijodini chuqur oʻrganib ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Filologiya fanlari nomzodi Madina Matyoqubova "Diydor" gazetasining 2003-yil 17-dekabr 38 sonida shunday degan: "Ogahiy sofiy shoir emas biroq soʻfiyona ruhda yozilgan asarlari ham anchagina shoir tabiricha koʻnglida Olloh boʻlgan odam goʻzal xulqqa ega boʻladi. Yana inson Olloh yaratgan mavjudodlar ichida eng buyugi va eng suyugidir vatandoshimiz xorazmiy aytganidek "Xaloyiq sevganin sevar, Holiq ham" bas shunday ekan, Ollohning ishq tushgan insonni shor nega sevmasin? Ogahiy ijodida asosan naqshbandiylik taMimoti mavjud ekanligini koʻramiz". Degan yana umumtaʼlim maktablari va oily oʻquv yurtlaridagi adabiyot dasturlarida Ogahiy ijodini oʻrganish uchun juda kam soatlar qoʻyilganini Ogahiy ijodida darslikka kiritilishi lozim boʻlgan jihatlar juda koʻp ekanligini aytadi. Qani endi Ogahiy ijodi boʻyicha lugʻat tuzilsa shoir asarlari kengroq oʻqitilsa uning zohiriy va botiniy jihatlar atroflicha oʻrganilardi degan edi.

Ogahiy anchagina masnaviyilar yozgan "Tavis ul-oshiqin"da 450 baytdan iborat 4 ta mustaqil masnaviy bor. Shu devonga Ogahiy yozgan debochada ham kichik-kichik 8 ta masnaviy parcha mavjud boʻlib, ular 88 baytni tashkil etadi. Masnaviyilar shoir tarixiy asarlari tarkibida turli munosabatlar bilan keltiriladi. Masalan: uning "Riyoz ud-davla" asarida 2 baytdan 278 baytgacha 91 masnaviy : "Zubdat ut-tavorix" asarida 2 baytdan 52 baytgacha boʻlgan 51 masnaviy: "Jomi ul-voqlati sultoni" asarida ikki baytdan 37 baytgacha boʻlgan 65 masnaviy va masnaviy parchalar: "Gulshani davlat" asarida 2 baytdan 138 baytgacha boʻlgan 96 masnaviy parchalar uchraydi. Ogahiyning 20 ga yaqin tarjima asarlari tarkibida ham masnaviyilar keltirilgan. Masalan Saʼdiy Sheroziyning "Guliston" asari tarjimasida undagi hikoyatlar ruhiga mos va qitʼalardan tashqari umumiy hajmi 63 baytdan iborat 2 baytdan 7 baytgacha boʻlgan 20 kichik-kichik masnaviy parchalar mavjud. Yuqoridagi kuzatishlardan maʼlum boʻladiki, Ogahiyning badiiy, tarixiy va tarjima asarlarida masnaviy ancha salmoqli oʻrin tutadi. Demak, Ogahiy bu janrdan foydalanishda 2 xil usuldan foydalangan ekan:

1-masnaviy sheʼr shaklida alohida-alohida asarlar yozish ("Taʼviz ul oshiqin"dagi masnaviyilar);

2-chi turli voqea hodisalar, sabablar munosabati shu voqea hodisalarga bog'lab masnaviy parchalar keltirish. Buni Ogahiy tomonidan shunday masnaviylarga quygan nomlar ham tasdiqlaydi: masalan; u "Imorati oliy"

Uning uzoq yillar saltanat boshida turishi, yaxshi ishlarni amalga oshirib, o`zidan nom qoldirgan, xech shubhasiz, uning Ogag'iy nasihatlarini quloqqa olganligi ham bir sababdir. Ogahiyning Feruzga aytib yozgan bu asari garchandmamlakatning yangi xukumdoriga bag'ishlangan bo'lsa-da, qasida emas. U 200 misralar atrofidagi, har bayti masnaviy yoli bilan qofiyalangan asrdir. Ba'zi manbalarda u Feruzga bag'ishlanganligi, kirishda tarif va maqtovlarning keltirilganligi sababli qasida janri namunasi sifatida tilga olinadi.

Munis va Ogahiy risola haqida maqolalar yozgan. Nasrullo Jumaxo`ja bu asarni "Ogohiyнома" deb ham atagan. Chunki, asar qisman madh ruhi bilan yozilgan, tarixiy shaxsga qaratilgan masnaviy namunasi.

Ogahiy tarixnavisligiga mansub «Firdavs ul-iqbol» (bu asarni Munis boshlagan, Ogahiy davom ettirgan), «Riyozi ud-dav-la», «Zubdat ut-tavorix», «Jome ul-voqeoti sultoni», «Gulshani davlat», «Shohidi iqbol» asarlari mamlakati-miz o`tmishi voqeligini haqqoniy aks ettiruvchi nodir tarixiy hujjatlardandir.

Ogahiy forsiydan' o`zbek tiliga o`girgan — Mirxondning «Ravzat us-safo», Muhammad Maxdiy Astrobodyning «Tarixi Jahonkushoyi Nodiriy», Zayniddin Vosifiyning «Badoe' ul-vaqoe'», Mahmud binni Shayx Ali G`ijduvoniyning «Miftoh ut-tolibin», Muhammad Muqim Hirotiyning «Tabaqoti Akbarshohiy», Muhammad Yusuf Munshining «Tazkirayi Muqimxoniy», Rizoqulixon Hidoyatning «Ravzat us-safoyi Nosiriy», Husayn Voiz Kopshfiyning «Axloqi Muhsiniy», Kayko-vusning «Qobusnoma», Muhammad Vorisning «Zubdat ul-hikoyot», «Sharhi daloyil al-hayrat», Sa'diy Sheroziyning «Guliston», Abdurahmon Jomiyning «Yusuf va Zulayho», Badriddin Hiloliyning «Shoh va gado», Nizomiy Ganjaviyning «Haft paykar» kabi tarixiy, badiiy asarlari o`zbek tarjima adabiyotining ulkan boyligi hisoblanadi. Sa'diyning «Guliston» asari Sharq olamida odob-axloq bo'yicha darslik darajasida dasturulamal si-fatida qo'llanib kelingan. Fors tilida yaratilgan ushbu asarning turkiy tilga tarjimalari oldin ham yaratilgan bo'lishiga qaramay, Ogahiyning o`zi yozishicha, shahzoda Muhammad Rahim to`ra, ya'ni Feruz mazkur asarni turkiy tilga tarjima qilishni buyuradi. «Guliston» asari «Podshohlar sifati zikrida», «Darveshlar axloqi zikrida», «Qanoat fazilati zikrida», «Xomushlig` favoyidi zikrida», «Ishq va yigitlik zikri-da», «Zaiflik va qarilik zikrida», «Tarbiyat ta-siri zikrida», «Tavongarlik va darveshlik bayonida Sa'diyning muddaiy bila jadal qilg`oni zikrida», «Suhbat va xizmat odobi zikrida» kabi boblardan tuzilgan.



Xullas, Ogahiy ijodi judayam boy meroski, ularni tadqiq qilib, xalqqa yetkazish izlanuvchidan chuqur bilim va mahorat talab qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot Instituti. Atoqli shoir tarixnavis tarjimon (Ogahiy haqida maqolalar). Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.- Toshkent, 1999.
2. Dolimov S. Ogahiyning dastlabki she"rlari<sup>7</sup> o'zbek tili va adabiyoti masalari. 1959 yil. N°2.
3. Ibragimov E. Ogahiy lirikasining badiiy hususiyatlari' adabiy merosi. 1982 yil.
4. Ogahiy abadiyati. Toshkent, 1999 yil.
5. Ogahiy olami. 1. 2. Kitobi. Urganch, 2004-2005 yillar.